

*Anarboyeva Iroda Oripovna*

*Andijan State Institute of foreign languages*

*Department of theory and practice of the French language v.b.Associate Professor, PhD.*

## THE PROCESS OF METAPHORIZATION IN DIFFERENT SYSTEMIC LANGUAGES

**Annotasiya:** Mazkur maqolada soʻz turli tizimli tillarda soʻz semantik tuzilishi, metafora va metonimiya jarayonining fransuz va oʻzbek tillaridagi oʻziga xos jihatlari hususida fikr yuritiladi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются семантическая структура слова в языках с разными словосистемами, особенности процесса метафоры и метонимии во французском и узбекском языках.

**Abstract:** This article analyzes the semantic structure of words in languages with different word systems, the features of the process of metaphor and metonymy in foreign and Uzbek languages.

Maʼlumki, turli tizimli tillarda metaforizasiya asosini otlar tizimining turli guruxlariga mansub boʻlgan soʻzlar tashkil etadi. Bular jumlasiga xayvonlar, qushlar turkumiga mansub boʻlgan, oʻsimliklar dunyosiga va roʻzgʻor buyumlarga xos hamda tana aʼzolarini, isteʼmol taomlarini belgilovchi va boshqa otlar guruxi kiradi. Ular ifodada kishilarga xos boʻlgan xarakterli xususiyatlarini koʻrsatib keladilar. Misol uchun xayvonlar turkumiga mansub otlardan «tulki, boʻri, it» kishilarning ruxiy xolatlarini belgilasa «arslon, boʻtaloq, toyloq, qoʻzichoq» va qushlar turkumidan «chugʻurchuq» kabi otlar qarindoshlilik hamda yosh xususiyatlarini koʻrsatadi.

**Misollar:- Uni boʻri koʻzidan yashirishni oʻyladi (Oybek. Navoiy).- Uni yaxshiy koʻzidan yashirishni oʻyladi [1. 99].**

Roʻzgʻor buyumlari, tana aʼzosi, isteʼmol taomlarini anglatuvchi soʻzlardan chiroq, oʻpka, bodroq kabi soʻzlar bola, xovliqma, doʻrdoq soʻzlariga transformastiyalashadi. Oʻsimliklar dunyosiga mansub boʻlgan «gul» hamda «terak» soʻzlari transformastiya natijasida «suluv, goʻzal» va «novcha» maʼnolarini oladilar. Metonimiya jarayoni bilan bogʻlangan soʻzlar ham turli guruxlarga mansub boʻlgan otlar boʻlib, kishilarga xos boʻlgan bir qator xususiyatlarni ifoda etadi. Bu jixatdan ular ham metaforik otlar kabi ichki xarakterizastiyaga ega boʻlib ifodada murakkab semantik strukturali otlarni almashtirib kela olish xususiyatiga egadirlar. Odatda metonimiya jarayoni bilan bogʻliq boʻlgan otlar shaxslarni ularga xos boʻlgan tomonlari, xarakterli xususiyatlari boʻyicha koʻrsatadi. Bundan koʻrinadiki mazkur otlar oʻzlarining asosiy maʼnolarida, ularning semantik tuzilishi bir arxisemadan iborat boʻlsa, metonimiyalashgandan soʻng esa ularning oʻrnini «shaxs» arxisemasi oladi. Ushbu otlarning asosiy arxisemalari esa ichki xarakterizastiyani belgilovchi differensial semalarga aylanadi: Soqol (arxisema «tana aʼzosi»)-soqol (arxisema «inson»+ differensial sema «soqolli»). Metonimiyalashgan soʻzlardan «shapka, salla, soqol» kabi bir qator soʻzlar kishilarni tashqi koʻrinishi boʻyicha belgilasa «oqsoch» hamda «jigar» soʻzlari ularni qarindoshlilik hamda ijtimoiy xolati boʻyicha koʻrsatadi [2.54].

Yuqoridagi misollarimiz taxlili shuni koʻrsatadiki, metafora hamda metonimiya asosida shaxsli otlar qatoriga oʻtgan barcha otlar oʻzlarining asosiy maʼnolarida sodda semantik strukturaga ega boʻlsalarda, shaxsli otlar qatoriga oʻtgandan soʻng esa murakkab strukturaga ega boʻladilar va shaxs maʼnosi bilan bir qatorda ichki xarakterizasiya oladilar. Umuman aytganda bu tipga mansub otlar tub maʼnosi bilan murakkab semantik strukturali otlar tarkibini toʻldirib ularni kengaytirar ekan. Bundan tashqari oʻzbek tilida koʻchma maʼno oluvchi otlardan tubdan farq qiladi. Agar yuqoridagi koʻchma

ma'no oluvchi otlar murakkab semantik strukturali otlarni ifodada almashtirib kelgan bo'lsalar, bu tipga mansub otlar sodda semantik strukturali otlarni almashtiradilar, ularning tarkibini to'ldiradilar. Bunday so'zlar boshqa bir qator xususiyatlari bilan bir qatorda metonimiyalashib ifodada kishi, odam, inson kabi so'zlarni almashtirib kela olish xususiyati bilan xarakterlanadi: **Misollar: Yuzlarcha ovoz - yuzlarcha odam; kuchlar - yigitlar;..** Demak, tana a'zolari va ularning manifestasiyalari boshqa bir qator xususiyatlari bilan bir qatorda kontekstda kishi, odam, inson kabi so'zlarni almashtirib kelib, shaxsli otlar tarkibini ma'lum darajada to'ldirar ekan. Bu narsa yuzaki qaraganda sezilmasada, lekin sinchiklab tekshirish mazkur xodisani o'zbek tili spetifikasiga xos ekanligini ko'rsatadi. Metafora bilan metonimiya murakkab semantik strukturali so'zlar bilan transformasiyalashsa, metonimiyaning maxsus ko'rinishlaridan biri tana a'zolari va ularning manifestasiyasi sodda semantik strukturali otlar bilan o'rin almashtirishlari mumkin. Bu jixatdan metafora va metonimiya ichki xarakterizasiyaga ega ekanliklari bilan farqlansa, tana a'zolari va ularning manifestasiyalari tashqi xarakterizasiya olishlari bilan xarakterlanadi. Mavjud farqli tomonlar ularni aloxida tiplarga tasnif etishga imkon beradi. Har ikkala tipdagi ko'chma ma'noli so'zlar antoroponimik maydonning nutqda kengayishiga bevosita ta'sir etadi. Natijada semantik analogiya hosil bo'ladi.

Bundan tashqari semantik dislokasiya o'z aksini «sinonimlar irradiyasiyasi»da topadi. Sinonimlar irradiyasiyasi asosida so'zlar semantik strukturasining gurux asosida qayta taqsimlanish jarayoni yotadi. Sinonimlar irradiyasiyasi birinchi marta B.Milorini tomonidan fransuz tili slengida aniqlangan bo'lib S. Ulman tomonidan «ma'nolarning gurux asosida qayta taqsimlanish universal qonuni» nomlangan.

Sinonimlar irradiyasiyasi qonuniga binoan, agar ma'lum semantik maydondagi so'zlardan birortasi boshqa semantik maydonga ko'chsa, qolgan so'zlar ham shu jarayonga ergashadi, ya'ni, ular ham shu yangi semantik mayonga funkstional ko'chadilar. O'zbek tilidagi «o'tmoq» fe'li mazmunan xarakter anglatuvchi fe'llar semantik guruxiga mansubdir: Mashina o'tdi. Lekin «o'tmoq» fe'li vaqt anglatuvchi fe'llar semantik maydoniga ko'chgandan so'ng, boshqa xarakter anglatuvchi fe'llar ham uning ortidan ergashganlar va vaqt anglatuvchi fe'llar semantik maydoniga ko'chgan. Natijada fe'llarning gurux asosida semantik siljishi sodir bo'lgan: vaqt o'tdi; Baxor keldi; soat yurayapti; Bayram keldi va boshqalar [5].

Bu o'rinda boshqa misollarni ham keltirish mumkin. Qarindoshlilik ma'nosiga ega bo'lgan ota, ona, xola, tog'a, uka, singil, jiyan..., kabi so'zlar va birodar, do'st, oshna, og'ayni, dugona...kabi do'stlik munosabatini anglatuvchi so'zlar sinonimik irradiyasiya asosida vokativ atamalar qatoriga ko'chganlar. Mazkur so'zlar murojaat qilish paytida qo'llaniladi. Jumladan, ota, ona, xola, tog'a so'zlari yoshi ulug' kishilarga nisbatan, birodar, do'st, oshna, og'ayni, dugona so'zlari tengdoshlarga nisbatan, uka, singil, o'g'il, jiyan so'zlari esa so'zlovchiga nisbatan kichik yoshdagi shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bo'ronov J.B. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. T., 1973
2. Абдураззаков М.А. Очерки по сопоставительному изучению разносистемных языков. Т. 1973  
A.Xojiev. ``Lingvistik atamalarning izohli lug'ati`` Toshkent- 1985
3. 5. <http://www.Ziyonet.uz>.
4. 6. <http://www.ilm.uz>.